SANOAT KORXONALARI INVESTITSIYALARINING SAMARADORLIGINI TA‘MINLASH VOSITALARI

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrasi doktoranti
Karimova Saodatxon Ulug’bek qizi
saodatkarim08@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, investitsiya loyihalarini tanlash va baholash hamda investitsion risklarni boshqarish asosida kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar va investitsiya samaradorligini baholash usullaridan foydalanilgan. Sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi moliyaviy, ishlab chiqarish, bozor va institutsional omillar tizimlashtirilgan hamda ularning o‘zaro ta’siri asoslangan. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsion risklarni boshqarish, investitsiya jarayonlarini monitoring qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan takomillashtirilgan yondashuv taklif etilgan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiya loyihalarining iqtisodiy qaytimini ta’minlash va korxonalarning uzoq muddatli investitsiyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, investitsiya, investitsiya samaradorligi, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsion risk, moliyalashtirish, investitsiya monitoringi, investitsiyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению теоретических и практических аспектов совершенствования инструментов обеспечения эффективности инвестиций на промышленных предприятиях. Цель исследования заключается в определении приоритетных направлений повышения эффективности капитальных вложений на основе эффективного использования инвестиционных ресурсов, отбора и оценки инвестиционных проектов, а также управления инвестиционными рисками на промышленных предприятиях. В процессе исследования использованы системный подход, сравнительный анализ, экономико-статистический анализ, анализ динамических рядов и методы оценки эффективности инвестиций. Систематизированы финансовые, производственные, рыночные и институциональные факторы, влияющие на эффективность инвестиций на промышленных предприятиях, и обоснована взаимосвязь между ними. Предложен усовершенствованный подход, основанный на финансово-экономической оценке инвестиционных проектов, диверсификации источников финансирования, управлении инвестиционными рисками, мониторинге инвестиционных процессов и использовании цифровых технологий. Результаты исследования могут способствовать повышению эффективности использования инвестиционных ресурсов на промышленных предприятиях, обеспечению экономической отдачи инвестиционных проектов и укреплению долгосрочной инвестиционной устойчивости предприятий.

Ключевые слова: промышленные предприятия, инвестиции, эффективность инвестиций, инвестиционный проект, инвестиционные ресурсы, инвестиционные риски, финансирование, инвестиционный мониторинг, инвестиционная устойчивость, цифровые технологии.

Abstract. This study is devoted to investigating the theoretical and practical aspects of improving the tools for ensuring investment efficiency in industrial enterprises. The aim of the study is to identify priority areas for increasing the

efficiency of capital investment through the effective use of investment resources, the selection and evaluation of investment projects, and the management of investment risks in industrial enterprises. The study employs a systematic approach, comparative analysis, economic and statistical analysis, time-series analysis, and methods for assessing investment efficiency. The financial, production, market, and institutional factors affecting investment efficiency in industrial enterprises are systematized, and their interrelationships are substantiated. An improved approach based on the financial and economic evaluation of investment projects, diversification of financing sources, investment risk management, monitoring of investment processes, and the use of digital technologies is proposed. The findings of the study can contribute to improving the efficiency of investment resource utilization in industrial enterprises, ensuring the economic returns of investment projects, and strengthening the long-term investment stability of enterprises.

Keywords: industrial enterprises, investment, investment efficiency, investment project, investment resources, investment risk, financing, investment monitoring, investment stability, digital technologies.

KIRISH

Bugungi kunda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi nafaqat jalb etilgan kapital hajmi, balki uning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, foyda va qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirishga ta’siri bilan belgilanadi. Shu sababli sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, investitsiya loyihalarini tanlash va baholash hamda investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

O‘zbekistonda investitsiya jarayonlarining faollashuvi iqtisodiyotning real sektorini, xususan, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim moliyaviy imkoniyatlarni shakllantirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga ko‘p bo‘lgan. Shuningdek, 2025-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 33,5 mlrd AQSH dollari, ya’ni 422,1 trln so‘mni tashkil etgan.

Investitsiyalarning tarmoq tarkibi sanoatning investitsiya jarayonlaridagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. 2025-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,2 foizi ishlab chiqarish sanoatiga, 17,1 foizi elektr, gaz va boshqa energiya ta’minoti sohalariga, 11,9 foizi esa tog‘-kon sanoatiga yo‘naltirilgan. Bu ko‘rsatkichlar sanoat korxonalarining zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va texnologik yangilash jarayonlarida investitsiya resurslariga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rsatadi.Investitsiya faolligining 2026-yilda ham yuqori sur’atlarda davom etayotgani kuzatilmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil yanvar–iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 338,9 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu 2025-yilning mos davriga nisbatan 17,5 foizga ko‘pdir [2]. Mazkur dinamika mamlakatda investitsiya faoliyatining kengayib borayotganini hamda sanoat korxonalarini moliyalashtirish imkoniyatlari ortayotganini ko‘rsatadi.Investitsiya jarayonlarining kengayishi sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi bilan ham bevosita bog‘liq. 2026-yil yanvar–iyun oylarida O‘zbekistonda 637,2 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,0 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ishlab chiqarish sanoatining ulushi 86,3 foizni tashkil etib, ushbu tarmoqda 549,7 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar investitsiyalar hajmining oshishi va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatsa-da, investitsiyalar hajmining o‘sishi o‘z-o‘zidan ularning yuqori iqtisodiy samaradorligini anglatmaydi. Investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda investitsiya loyihalarining daromadliligi, kapitalning qoplash muddati, pul oqimlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, foyda va rentabellik kabi ko‘rsatkichlarni kompleks baholash zarur. Shu bilan birga, investitsion risklarning mavjudligi va moliyalashtirish manbalarining tarkibi ham investitsiya samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini takomillashtirish masalasi investitsiya resurslarining miqdoriy o‘sishidan ularning sifat jihatidan samarali foydalanishga o‘tishni talab etadi. Bunda investitsiya loyihalarini dastlabki bosqichda moliyaviy-iqtisodiy baholash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsion risklarni aniqlash va boshqarish, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini monitoring qilish hamda loyiha yakunida erishilgan natijalarni baholash yagona tizim sifatida qaralishi lozim.Ayniqsa, NPV, IRR, PI va investitsiyalarning qoplash muddati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Biroq sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklash yetarli emas. Investitsiyalarning ishlab chiqarish quvvatlariga, innovatsion faollikka, eksport salohiyatiga, mehnat unumdorligiga va korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga ta’sirini ham hisobga olish zarur.Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlashning mavjud vositalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekistonda investitsiya hajmlarining yuqori sur’atlarda o‘sib borayotgan sharoitida jalb etilayotgan kapitalning iqtisodiy qaytimi va

samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash va investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda korporativ moliya, investitsion loyihalarni baholash, investitsiya faoliyatini rejalashtirish, risklarni boshqarish hamda korxonalarning strategik rivojlanishi bilan bog‘liq holda keng tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda xorijiy, MDH va mahalliy iqtisodchi olimlarning yondashuvlariga ajratish mumkin.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya samaradorligini baholash, avvalo, investitsiya loyihalarining kelgusidagi pul oqimlari va korxona qiymatiga ta’sirini aniqlashga asoslanadi. R. Brealey, S. Myers va F. Allen tomonidan ishlab chiqilgan korporativ moliya konsepsiyasida investitsiya qarorlarini qabul qilishda sof joriy qiymat (NPV), investitsiya loyihalarini tahlil qilish va risk hamda kapital qiymatini hisobga olish muhim yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Mualliflarning yondashuvida investitsiya qarorining asosiy mezoni loyihaning korxona qiymatini oshirish qobiliyati bilan bog‘lanadi. Mazkur konsepsiya sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini faqat investitsiya hajmi nuqtayi nazaridan emas, balki kelgusida yaratiladigan iqtisodiy qiymat asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi[1].

Brealey, Myers va Allen yondashuvining muhim jihati shundaki, investitsiya samaradorligini aniqlashda vaqt omili va kapital qiymatini hisobga olish talab etiladi. Ularning korporativ moliyaga oid tadqiqotlarida NPV va boshqa investitsion mezonlar alohida boblarda, shuningdek investitsiya loyihalarini tahlil qilish va risk hamda kapital qiymatini baholash masalalari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi[2]. Shu jihatdan ushbu yondashuv sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini baholashning moliyaviy asoslarini shakllantirishda muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi.

1 Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. Principles of Corporate Finance. 2025 Release ISE. McGraw Hill.

2 Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. Principles of Corporate Finance. 2025 Release ISE. McGraw Hill.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida esa investitsiya samaradorligini ta’minlashda rejalashtirish, investitsiya loyihalarini tanlash, loyihalarni reyting asosida saralash va risklarni hisobga olish masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, E.L. Chazov, V.P. Graxov, V.V. Krivorotov va O.L. Simchenko tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda sanoat korxonasining investitsiya faoliyatini boshqarishda rejalashtirishning ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqotchilar investitsiya loyihalarini baholashda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda risk omillarini ham hisobga olish, loyihalarni ustuvorligi bo‘yicha saralash va optimal investitsiya qarorini shakllantirish zarurligini asoslaydilar[3].

Mazkur tadqiqotning e’tiborga molik jihati shundaki, unda investitsiya samaradorligini baholash jarayoni statik ko‘rsatkichlar bilan chegaralanmasdan, loyiha risklari, texnologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda kompleks qaror qabul qilish jarayoni sifatida ko‘riladi. Mualliflar ishlab chiqqan yondashuvda investitsiya loyihalarini tanlash va baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda turli omillarni integratsiyalashgan holda hisobga olish imkoniyati ko‘rsatilgan[4]. Bu yondashuv sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini ta’minlash vositalarini takomillashtirishda risklarni boshqarish va investitsiya loyihalarini monitoring qilishning ahamiyatini kuchaytiradi.

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda ham sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi va investitsion salohiyatni baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, U.S. Matchanovning 2026-yilda chop etilgan tadqiqotida sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati zamonaviy bozor sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini

3 Chazov E.L., Grakhov V.P., Krivorotov V.V., Simchenko O.L. Improving the Efficiency of Planning as a Basis for Management the Investment Activity of an Industrial Enterprise. Energetika. Proceedings of CIS Higher Education Institutions and Power Engineering Associations, 2019, Vol. 62, No. 1, pp. 88–100.

4 Chazov E.L., Grakhov V.P., Krivorotov V.V., Simchenko O.L. Improving the Efficiency of Planning as a Basis for Management the Investment Activity of an Industrial Enterprise. Energetika. Proceedings of CIS Higher Education Institutions and Power Engineering Associations, 2019, Vol. 62, No. 1, pp. 88–100.

oshirish, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholangan [5].

U.S. Matchanovning yondashuvida investitsiya samaradorligini oshirish masalasi faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki sanoat korxonalarining texnologik yangilanishi, innovatsion rivojlanishi va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi bilan ham bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi [6]. Bu yondashuv sanoat korxonalarida investitsiyalarning haqiqiy samaradorligini aniqlashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish va innovatsion ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda investitsiya samaradorligini baholashning amaliy metodlari ham rivojlantirilmoqda. N.G. Khidirov sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish va investitsiya faoliyatini korxonaning moliyaviy natijalari bilan bog‘liq holda tahlil qilish masalasini tadqiq etgan. Muallif investitsiya faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy tahlil vositalaridan, jumladan, DuPont modelidan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi[7].

So‘nggi tadqiqotlarda investitsiya samaradorligini korxonaning operatsion faoliyati bilan bog‘lash tendensiyasi ham kuchaymoqda. Jumladan, B.R. Tillaevaning 2026-yildagi tadqiqotida sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda tejamkor ishlab chiqarish (lean production) tamoyillaridan foydalanish, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, operatsion ko‘rsatkichlardan foydalanish,

5 Matchanov U.S. Факторы эффективности инвестиционной деятельности промышленных предприятий. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar, 2026, Vol. 5, No. 25, pp. 11–14.

6 Matchanov U.S. Факторы эффективности инвестиционной деятельности промышленных предприятий. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar, 2026, Vol. 5, No. 25, pp. 11–14.

7 Khidirov N.G. Evaluation of Efficiency of Investment Activity in Industrial Enterprises. World Economics and Finance Bulletin, 2023, Vol. 22, pp. 29–32.

raqamlashtirish va texnologik yangilanish investitsiya samaradorligini oshirish omillari sifatida asoslangan 8.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar investitsiya samaradorligini asosan korxona qiymatini maksimallashtirish, diskontlangan pul oqimlari va risklarni hisobga olish nuqtayi nazaridan tadqiq etgan bo‘lsa, MDH olimlari investitsiya faoliyatini rejalashtirish, loyihalarni tanlash va risk asosida saralash masalalariga ko‘proq e’tibor qaratgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa investitsiya samaradorligini korxonalarning texnologik modernizatsiyasi, moliyaviy natijalari, innovatsion rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog‘lashga e’tibor kuchayib bormoqda.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning tahlili sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini baholash, moliyalashtirish, risklarni boshqarish, monitoring qilish va investitsiyadan keyingi natijalarni baholash vositalarini yagona integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantirish masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, investitsiya hajmining o‘sishi bilan investitsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, rentabellik, innovatsion faollik va qo‘shilgan qiymat yaratishga ta’sirini birgalikda baholashga asoslangan yondashuvni yanada takomillashtirish zarur.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini moliyaviy baholash + risklarni boshqarish + investitsiya monitoringi + ishlab chiqarish samaradorligi + innovatsion rivojlanish komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi asosida takomillashtirishga e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish bilan birga, sanoat korxonalarida investitsiyalarning real iqtisodiy natijadorligini kompleks baholash imkonini beradi.

METADOLOGIYA

8 Tillaeva B.R. Развитие инвестиционной деятельности предприятий на основе бережливого производства. Marketing Journal, 2026, No. 2.

Tadqiqot metodologik asosini sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini kompleks baholashga yo‘naltirilgan tizimli va kompleks yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi moliyaviy, ishlab chiqarish, risk va institutsional omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Tahlil jarayonida qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), rentabellik indeksi (PI) va investitsiyalarning qoplash muddati (PP) asosiy baholash mezonlari sifatida olindi. Shuningdek, investitsiyalarning korxona ishlab chiqarish hajmi, rentabelligi, mehnat unumdorligi va moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2020–2026-yillarga oid statistik ma’lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda investitsiya faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Mazkur metodologik yondashuv asosida sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash investitsiya hajmini oshirish bilangina cheklanmay, jalb qilingan kapitalning ishlab chiqarish, moliyaviy, innovatsion va bozor natijalariga aylanish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli investitsiya faoliyatini baholashda investitsiya resurslarining hajmi va tarkibi bilan bir qatorda loyihalarni tanlash sifati, moliyalashtirish manbalarining maqbulligi, investitsion risklarni boshqarish, loyiha ijrosini monitoring qilish hamda investitsiyadan keyingi haqiqiy natijalarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash

jarayoni “investitsiya resurslari – loyiha – moliyalashtirish – risk – monitoring – natija – qayta baholash” o‘zaro bog‘liqligi asosida tadqiq etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari mamlakatda investitsiya faolligining sezilarli darajada oshayotganligini ko‘rsatadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 210,2 trln so‘mdan 2025-yilda 591,1 trln so‘mga yetgan[9].

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi[10]

Yillar	Asosiy kapitalga investitsiyalar, trln so‘m	Oldingi yilga nisbatan mutlaq o‘zgarish, trln so‘m
2020	210,2	–
2021	239,6	+29,4
2022	266,2	+26,7
2023	356,1	+89,8
2024	507,5	+151,4
2025	591,1	+83,7

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020–2025-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga investitsiyalarning nominal hajmi qariyb 2,81 barobarga oshgan. Mazkur davrda investitsiyalar hajmining o‘rtacha yillik murakkab o‘sish sur’ati qariyb 23 foizni tashkil etadi. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda investitsiya hajmining jadal kengayishi kuzatilgan.Biroq investitsiya hajmining o‘sishi investitsiya samaradorligining avtomatik ravishda oshganligini anglatmaydi. Chunki iqtisodiy samaradorlik investitsiya sifatida sarflangan har bir kapital birligining korxona ishlab chiqarish hajmi, foydasi, rentabelligi, mehnat unumdorligi, eksporti va qo‘shilgan qiymatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani bilan belgilanadi.2025-yilda ishlab chiqarish sanoatiga 160,5

9 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/67692-s-nggi-35-jilda-investitsiyalar-azhmi-14-2-barobarga-oshgan-2

10 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,2 foizini tashkil etgan. Mazkur holat ishlab chiqarish sanoatining investitsiya resurslarini jalb qiluvchi asosiy iqtisodiy faoliyat turlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.Bundan tashqari, 2025-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 422,1 trln so‘m yoki 33,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Ularning 33,2 foizi ishlab chiqarish sanoatiga yo‘naltirilgan. Bu sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini baholashda moliyalashtirish manbalari, kapital qiymati, valyuta riski va qarz majburiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.2026-yilning yanvar–iyun oylarida esa asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 338,9 trln so‘mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 17,5 foizga oshgan [4]. Moliyalashtirish tarkibida xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 235,6 trln so‘m, korxonalarning o‘z mablag‘lari 38,6 trln so‘m va davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 23,4 trln so‘mni tashkil etgan.Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2026-yil I yarim yilligida xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi qariyb 69,5 foiz, korxonalarning o‘z mablag‘lari ulushi esa 11,4 foiz atrofida bo‘lgan.

Bu natija sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlashda moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish vositasining ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Tashqi kapital ulushining yuqoriligi investitsiya loyihalarini tanlashda kutilayotgan daromadlilik bilan bir qatorda kredit qiymati, valyuta kursi o‘zgarishi, qarz yuklamasi va pul oqimlari barqarorligini kompleks baholashni talab etadi.

O‘tkazilgan tadqiqot asosida sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini ta’minlovchi vositalar olti asosiy guruhga ajratildi.

2-jadval

Sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalari

Samaradorlikni ta’minlash vositasi	Asosiy mazmuni	Kutilayotgan natija
Strategik rejalashtirish	Investitsiya ehtiyojini aniqlash va ustuvor	Investitsiya resurslarini strategik maqsadlarga

	investitsiya yo‘nalishlarini belgilash	muvofiq taqsimlash
Loyiha samaradorligini baholash	NPV, IRR, PI, PP va sezgirlik tahlili asosida loyihalarni baholash	Iqtisodiy jihatdan samarali loyihalarni tanlash
Moliyalashtirishni optimallashtirish	O‘z va jalb qilingan mablag‘larning maqbul nisbatini shakllantirish	Kapital qiymatini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash
Risklarni boshqarish	Investitsion risklarni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilish	Potensial moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish
Raqamli monitoring	Xarajatlar, muddatlar, pul oqimlari va KPIlarning reja–fakt bajarilishini nazorat qilish	Og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish
Post-investitsion baholash	Investitsiyadan keyingi haqiqiy natijalarni rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash	Investitsiyaning real samaradorligini aniqlash va keyingi qarorlarni takomillashtirish

Manba: ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya samaradorligini ta’minlashning mavjud vositalarini alohida-alohida qo‘llash yetarli natija bermasligi mumkin. Ularni investitsiya loyihasining butun hayotiy siklini qamrab oladigan yagona boshqaruv

tizimiga birlashtirish zarur.

Tadqiqot natijasida investitsiya loyihasi amalga oshirilgandan keyingi haqiqiy iqtisodiy natijani dastlabki prognoz bilan solishtirish uchun reja–fakt samaradorlik koeffitsientidan foydalanish taklif etiladi:

Krf = Ef / Er

bu yerda:

Krf – reja–fakt samaradorlik koeffitsienti;

Ef – investitsiyaning faktik samaradorligi;

Er – investitsiya loyihasi bo‘yicha rejalashtirilgan samaradorlik.

Natijani quyidagicha talqin qilish mumkin:


Krf > 1 – haqiqiy samaradorlik rejadan yuqori;

Krf = 1 – rejalashtirilgan samaradorlikka erishilgan;

Krf < 1 – haqiqiy samaradorlik rejalashtirilgan darajadan past.

Krf < 1 bo‘lgan holatda og‘ish sabablarini investitsiya xarajatlari, loyiha muddati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish, sotuv hajmi, mahsulot tannarxi, kapital qiymati va risk omillari bo‘yicha dekompozitsion tahlil qilish taklif etiladi.

Tadqiqot doirasida sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llashga asoslangan takomillashtirilgan model ishlab chiqildi. Modelning asosiy maqsadi investitsiya resurslarini jalb qilishdan boshlab, ularning yakuniy iqtisodiy natijadorligini baholashgacha bo‘lgan jarayonni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishdan iborat. Modelda sanoat korxonasining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish, foyda va qo‘shimcha qiymat yaratish investitsiya faoliyatining strategik maqsadlari sifatida belgilangan.



1-rasm. Sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta'minlash vositalarini takomillashtirish modeli.

Modelga ko‘ra, investitsiya samaradorligini ta’minlash jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘langan olti asosiy bosqich asosida amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda korxonaning investitsiyaga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanib, strategik maqsadlar va ustuvor investitsiya yo‘nalishlari belgilanadi hamda investitsiya portfeli shakllantiriladi. Bu bosqich investitsiya resurslarining korxona strategiyasiga mos yo‘nalishlarga

taqsimlanishini ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya loyihalarining muqobil variantlari shakllantirilib, ular iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida tanlanadi. Bunda NPV (sof joriy qiymat), IRR (ichki daromadlilik normasi), PI (rentabellik indeksi) va PP (qoplash muddati) kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish, shuningdek, sezgirlik va ssenariy tahlillarini amalga oshirish nazarda tutilgan. Natijada iqtisodiy samaradorligi yuqori va risk darajasi maqbul bo‘lgan investitsiya loyihalarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Uchinchi bosqich investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini optimallashtirishga qaratilgan. Mazkur bosqichda korxonaning o‘z mablag‘lari, kreditlar, xorijiy investitsiyalar va boshqa jalb qilingan resurslarning maqbul tarkibini shakllantirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda moliyalashtirish qiymatini minimallashtirish ko‘zda tutiladi. Bu esa investitsiya loyihasining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ortiqcha qarz yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi bosqichda investitsiya faoliyatiga xos moliyaviy, bozor, ishlab chiqarish, texnologik va boshqa risklarni aniqlash, baholash va boshqarish amalga oshiriladi. Risklarni kamaytirishda diversifikatsiya, sug‘urtalash, xedjirlash va doimiy risk monitoringidan foydalanish ko‘zda tutiladi. Risklarni investitsiya jarayonining alohida yakuniy elementi sifatida emas, balki loyiha amalga oshirilishining barcha bosqichlarida nazorat qilinadigan omil sifatida qarash modelning muhim jihatlaridan biridir.

Beshinchi bosqich investitsiya loyihasini amalga oshirish va uning bajarilishini raqamli monitoring qilishni nazarda tutadi. Bunda loyiha ijrosi, investitsiya xarajatlari, muddatlar, sifat ko‘rsatkichlari va KPIlarning reja–fakt holati muntazam nazorat qilinadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish loyihadagi og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Oltinchi bosqichda post-investitsion samaradorlik tahlili amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda investitsiya kiritilgandan keyingi haqiqiy moliyaviy natijalar,

jumladan foyda, rentabellik va ROI, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, innovatsion natijalar hamda bozor natijalari baholanadi. Shu bilan birga, erishilgan natijalar dastlab belgilangan investitsiya maqsadlari bilan taqqoslanadi. Bu investitsiyaning rejalashtirilgan emas, balki haqiqiy iqtisodiy qaytimini aniqlash imkonini beradi.

Modelda investitsiya samaradorligini baholashni faqat bitta moliyaviy ko‘rsatkich bilan chegaralamaslik maqsadida investitsiya samaradorligining integral bahosi (ISE) nazarda tutilgan. U umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalangan:

$$ISE=0,30F+0,25P+0,20I+0,15B+0,10R$$

bunda F – moliyaviy samaradorlik, P – ishlab chiqarish samaradorligi, I – innovatsion samaradorlik, B – bozor samaradorligi, R – risklarni boshqarish samaradorligini ifodalaydi. Mazkur yondashuv investitsiyaning natijadorligini moliyaviy qaytim bilan bir qatorda uning ishlab chiqarish, innovatsion, bozor va risk natijalari asosida kompleks baholashga yo‘naltirilgan.

Modelda investitsiya samaradorligiga korxonaning ichki boshqaruv vositalaridan tashqari tashqi muhit omillari ham ta’sir qilishi hisobga olingan. Jumladan, iqtisodiy muhit, davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, bozor konyunkturasi, raqobat muhiti, texnologik rivojlanish va ekologik talablar investitsiya qarorlarini shakllantiruvchi muhim tashqi omillar sifatida ajratilgan. Bu modelning investitsiya faoliyatini faqat korxona ichki imkoniyatlari doirasida emas, balki tashqi iqtisodiy sharoit bilan o‘zaro bog‘liqlikda baholashiga imkon beradi.

Modelning yana bir muhim elementi takomillashtirish vositalari hisoblanadi. Ular strategik boshqaruv va investitsion rejalashtirishni takomillashtirish, loyiha baholash usullarini modernizatsiyalash, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va optimallashtirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, raqamli monitoring va axborot tizimlarini joriy etish, kadrlar malakasi va motivatsiyasini oshirish hamda korporativ boshqaruv va ichki nazoratni rivojlantirishni qamrab oladi. Ushbu vositalar

investitsiya jarayonining tegishli bosqichlariga ta’sir ko‘rsatib, umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Integral baholash natijasida investitsiya loyihalari samarali va samarasiz yo‘nalishlarga ajratiladi. Samarali investitsiyada investitsiya qaytimi, foyda va rentabellik, ishlab chiqarish va eksport hajmi, innovatsion rivojlanish hamda korxona qiymati va raqobatbardoshligi oshishi kutiladi. Samarasiz investitsiyada esa kapital qaytimi pastligi, rentabellikning pasayishi, resurslardan samarasiz foydalanish va risk darajasining ortishi kuzatilishi mumkin. Bunday loyihalarni qayta ko‘rib chiqish, tuzatish yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan holatda to‘xtatish nazarda tutiladi.

Taklif etilayotgan modelning asosiy ilmiy jihati investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini alohida elementlar sifatida emas, balki “rejalashtirish → loyiha tanlash va baholash → moliyalashtirishni optimallashtirish → risklarni boshqarish → raqamli monitoring → post-investitsion baholash → integral baholash → qayta aloqa” tamoyiliga asoslangan yagona tizimga birlashtirishdan iborat. Yakuniy natijalar keyingi investitsiya qarorlarini qabul qilish va investitsiya portfelini doimiy ravishda takomillashtirish jarayoniga qayta yo‘naltiriladi. Shu tariqa model yopiq qayta aloqa sikli asosida ishlaydi va sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini muntazam oshirib borishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirish faqat investitsiya hajmini ko‘paytirish bilan emas, balki investitsiya resurslarini oqilona taqsimlash, istiqbolli loyihalarni ilmiy asosda tanlash, moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish hamda investitsion risklarni samarali boshqarish bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu jihatdan investitsiya samaradorligini korxonaning moliyaviy natijalari bilan cheklamasdan, ishlab chiqarish, innovatsion va bozor natijalari bilan kompleks bog‘liqlikda baholash zarur.

O‘tkazilgan tahlil asosida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalari strategik rejalashtirish, investitsiya loyihalarini tanlash va baholash, moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish, investitsion risklarni boshqarish, raqamli monitoring hamda post-investitsion samaradorlikni baholash kabi oltita asosiy yo‘nalishga tizimlashtirildi. Mazkur vositalarning o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi investitsiya loyihasining butun hayotiy sikli davomida samaradorlikni nazorat qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlash vositalarini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Modelning muhim jihati investitsiya faoliyatini “rejalashtirish → loyiha tanlash va baholash → moliyalashtirishni optimallashtirish → risklarni boshqarish → raqamli monitoring → post-investitsion tahlil → integral baholash → qayta aloqa” ketma-ketligidagi uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida shakllantirishdan iborat. Bunda tashqi iqtisodiy muhit, davlat siyosati, bozor konyunkturasi, raqobat, texnologik rivojlanish va ekologik talablarning ta’siri ham hisobga olinadi.

Taklif etilgan yondashuv investitsiya loyihalarining samaradorligini faqat dastlabki NPV, IRR, PI va PP ko‘rsatkichlari asosida emas, balki loyiha amalga oshirilgandan keyingi moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion, bozor va risklarni boshqarish natijalari asosida kompleks baholash imkonini beradi. Raqamli monitoring va post-investitsion tahlilning modelga kiritilishi esa rejalashtirilgan va haqiqiy natijalar o‘rtasidagi og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

Umuman, sanoat korxonalarida investitsiyalar samaradorligini ta’minlashda “investitsiya hajmini oshirish”dan “har bir investitsiya birligining iqtisodiy qaytimini oshirish” tamoyiliga o‘tish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan model va vositalardan foydalanish investitsiya resurslarining iqtisodiy qaytimini oshirish, samarasiz loyihalarni erta aniqlash, risklarni kamaytirish, ishlab chiqarish va innovatsion

faollikni kuchaytirish hamda sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–598-son Qonuni. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida.” 25.12.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–255-son qarori. “Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” 21.08.2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5233-son qarori. “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida.” 25.08.2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4986-son qarori. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” 10.02.2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 44-son qarori. “Yirik investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida korrupsiyaga qarshi hamda raqobatni ta’minlovchi standartlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” 03.02.2026.
6. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. Principles of Corporate Finance. – 14th ed. – New York: McGraw Hill, 2025.
7. Chazov E.L., Grakhov V.P., Krivorotov V.V., Simchenko O.L. Improving the Efficiency of Planning as a Basis for Management the Investment Activity of an Industrial Enterprise // Energetika. Proceedings of CIS Higher Education Institutions and Power Engineering Associations. – 2019. – Vol. 62. – No. 1. – P. 88–100. – DOI: 10.21122/1029-7448-2019-62-1-88-100.
8. Matchanov U.S. Факторы эффективности инвестиционной

деятельности промышленных предприятий // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Vol. 5. – No. 25. – P. 11–14. – DOI: 10.5281/zenodo.21872869.

9. Khidirov N.G. Evaluation of Efficiency of Investment Activity in Industrial Enterprises // World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – Vol. 22. – P. 29–32.

10. Tillaeva B.R. Развитие инвестиционной деятельности предприятий на основе бережливого производства // Marketing Journal. – 2026. – № 2. – DOI: 10.67668/mj/2026iss2/807.

11. S.Karimova. “Assessment of investment efficiency based on industrial production growth rates and investment dynamics” 82-b , International Scientific-Electronic Journal “Pioneering Studies and Theories”, Volume 2. Issue 1 .2026.

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar. 2025-yil yanvar–dekabr. – Toshkent, 2026.

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln so‘mga yetdi. – Toshkent, 2026.

14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2026-yilning birinchi yarmida investitsiyalar hajmi 338,9 trln so‘mga yetdi. – Toshkent, 2026.

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi. 2026-yil yanvar–iyun. – Toshkent, 2026.

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2026.